ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 21.01.2026 · Accepted: 26.02.2026 · Published: 31.03.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/zh4rjj53

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 1(2), 2026
www.jnculture.uz

“Tohir va Zuhra” musiqali dramasining sahnaviy talqini: kecha va bugun

(Stage Interpretation of the Musical Drama Tohir and Zuhra: Past and Present)

Gulxumor Abdusamatova

Department of The History and Theory of Uzbek Maqom,
The Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-7822-644X
E-mail: abdusamatovagulxumor27@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada “Tohir va Zuhra” sahna musiqasining dastlabki namoyishlari ilmiy-nazariy asoslar va tarixiy manbalarga tayangan holda yoritiladi. Shuningdek, hozirgi kunda Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali teatri sahnasida namoyish etilayotgan yangi talqindagi “Tohir va Zuhra” spektaklining musiqiy dramaturgiyasi batafsil tahlil qilinadi. O‘zbekiston xalq shoiri Sobir Abdulla va atoqli bastakor To‘xtasin Jalilov tomonidan 1939 yilda yaratilgan “Tohir va Zuhra” musiqali dramasining yaratilish tarixi, uning g‘oyaviy-badiiy asoslari hamda hozirgi kundagi sahnaviy talqinlari musiqa va dramaturgiya uyg‘unligi nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Unda asarning kechagi va bugungi sahna talqinlari qiyosiy tahlil asosida ko‘rib chiqilib, dastlabki ijro uslublarida an’anaviy teatr estetikasi, zamonaviy sahnalashtirishda esa rejissura san’ati, sahna texnologiyalari, zamonaviy musiqiy yechimlarning keng qo‘llanilishi ta’kidlanadi. Tadqiqot musiqali drama janrining rivojlanishidagi uzviylik, yangilanish jarayonlarini ilmiy jihatdan ochib beradi. Shuningdek, asar qahramonlari — Tohir va Zuhra siymolari musiqiy ifoda, vokal partiyalar va orkestr tuzilishi orqali musiqiy jihatdan chuqur tasvirlanadi. Natijada “Tohir va Zuhra” musiqali dramasining milliy sahna san’atidagi o‘rni, uning tarixiy ildizlari va zamonaviy talqinlardagi badiiy evolyutsiyasi keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar: musiqali drama, maqom, sho‘ba, ashula, bastakor, doston, uvertyura.

Abstract

The article analyzes the history of the creation of the musical drama "Tahir va Zuhra" created by the national poet of Uzbekistan Sabir Abdulla and the famous composer Tokhtasin Jalilov in 1939 and its current interpretation in terms of music and dramaturgy. This article analyzes the history of the creation of the musical drama “Tahir and Zuhra,” written in 1939 by the People’s Poet of Uzbekistan Sabir Abdulla and the renowned composer To‘xtasin Jalilov, as well as its contemporary interpretation from the perspectives of music and dramaturgy. The study examines the origins of the work, its ideological and artistic foundations, and modern stage

interpretations in terms of the interaction between music and dramatic structure. The article presents a comparative analysis of early and contemporary productions, highlighting the dominance of traditional theatrical aesthetics in earlier interpretations and the active use of directing techniques, stage technologies, and modern musical solutions in present-day performances. The research reveals the processes of continuity and renewal in the development of the musical drama genre. Particular attention is given to the musical characterization of the main characters, Tohir and Zuhra, through vocal parts and orchestral structure. As a result, the study defines the work's place in national theatrical art, its historical roots, and its artistic evolution in contemporary interpretations.

Keywords: musical drama, makom, shuba, song, composer, epic, overture.

Аннотация

В статье анализируется история создания музыкальной драмы «Тахир ва Зухра», созданной народным поэтом Узбекистана Сабиром Абдуллой и известным композитором Тохтасином Джалиловым в 1939 году, и ее современная интерпретация с точки зрения музыки и драматургии. Рассматривается история создания музыкальной драмы, написанной народным поэтом Узбекистана Собир Абдулла и выдающимся композитором Тухтасин Жалилов в 1939 году, её идейно-художественные основы, а также современные сценические интерпретации с точки зрения взаимодействия музыки и драматургии. В статье проводится сравнительный анализ ранних и современных постановок, где подчеркивается преобладание традиционной театральной эстетики в ранних интерпретациях и активное использование режиссуры, сценических технологий и современных музыкальных решений в современных постановках. Исследование раскрывает процессы преемственности и обновления в развитии жанра музыкальной драмы. Особое внимание уделяется музыкальной характеристике образов Тохира и Зухры через вокальные партии и оркестровую структуру. В результате определяется место произведения в национальном театральном искусстве, его исторические корни и художественная эволюция в современных интерпретациях.

Ключевые слова: музыкальная драма, маком, шуъба, песня, бастакор, эпос, увертюра.

O‘zbek musiqali dramasi tomosha san’ati janrlari orasida o‘zining xalqchilligi bilan alohida ajralib turadi. XX asr boshlarida samarali ijod qilgan yozuvchi-dramaturglar, bastakor va kompozitorlar mazkur sahna janrining shakllanishi va rivojlanishida sidqidildan xizmat ko‘rsatgani ma’lum. G‘ulom Zafariy, Sobir

Abdulla, Uyg‘un, Zinnat Fatxulin, Komil Yashin kabi atoqli adiblar, To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Reyngold Glier, Manas Leviyev, Doni Zokirov kabi mashxur musiqa ijodkorlarning serqirra faoliyati ushbu janr taraqqiyoti uchun ahamiyatli bo‘ldi.

Avvalambor, musiqali dramalar “otaxoni” deya atoqli bastakor, sozanda va ustoz To‘xtasin Jalilovni tilga olishimiz shart, albatta. Zero, uning ijodiy merosi xalq musiqasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan holda, aynan ushbu janrning gullab-yashnashiga ulushi katta bo‘ldi. 1940-50 yillarda To‘xtasin Jalilov respublikadagi qator musiqali teatrlarda badiiy rahbar bo‘lib xizmat qilgan ekan, qirqqa yaqin sahnaviy asarlari bilan san’at olamini boyitishga muvaffaq bo‘ldi. Xususan, tarixiy mavzulardagi “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra” singari spektakllar uzoq yillarga repertuar bisotida saqlanib qolgani bejiz emas. Ayniqsa, Sobir Abdulla bilan To‘xtasin Jalilov hamkorligida yaratilgan “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi tez orada o‘zbek xalqining eng sevimli sahna asarlaridan biriga aylandi. Binobarin, To‘xtasin Jalilovning qoyilmaqom tarzda bastalagan maftunkor musiqasi orqali pesadagi qahramonlar siymosi yorqinlashib, ularning qaynoq his-tuyg‘ulari va orzu-umidlari jonlandi.

Mavzuga oid manbalar tadqiqi

“Tohir va Zuhra”ning ilk sahna taqdimoti 1939-yilda Farg‘ona viloyati musiqali drama teatrida o‘tkazilgani ma’lum [1]. O‘sha kezlarda spektakl namoyishi tomoshabinlar tomonidan qizg‘in kutib olingani sabab, keyingi yili ushbu asar Andijon va Qo‘qon musiqali teatrlari repertuaridan o‘rin egalladi. Masalan, “Tohir va Zuhra”ning musiqiy ifodaviyligini tomoshabinga mohirona yetkazib bergan qo‘qonlik Valijon Hamroev (Tohir rolida), Saboxon Karimova (Zuhra rolida), Qurbon Nazarov (Boboxon rolida) va boshqa iqtidorli aktyorlarning xizmati katta bo‘ldi. Mazkur musiqali dramani tomosha qilishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib, Namangan va Samarqand teatrlarida ham namoyish etiladi. 1941-yil 23-mart sanasida esa Muqimiy nomidagi poytaxt musiqali drama teatri sahnasiga olib

chiqildi. Nihoyat, ijodiy va ijroviy muvaffaqiyatlar cho‘qqisini zabt etgan “Tohir va Zuhra”ning dong‘i respublikamizdagina emas, balki, qo‘shni Qirg‘iziston va Tojikistondagi teatrlarda qizg‘in kutib olindi. “Tohir va Zuhra”ning u yerdagi musiqali teatrlarda mohirona sahnalashtirilgani mahalliy aholi uchun quvonarli voqea bo‘ldi.

Atoqli teatrshunos olim Toshpo‘lat Tursunov bildirgan fikriga ko‘ra: “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi “Muqimiy” teatrining bir umrlik repertuaridan tushmaydigan spektakl bo‘ldi. Undagi qator kuy va qo‘shiqlar tomoshabin qalbiga chuqur o‘rnashdi, “To‘ylar muborak” esa kelin va kuyovlarning madhiyasiga aylanib qoldi, hamon el va yoshlarning og‘zida” [2]. Jumladan, o‘sha davrda teatrda ishlagan ustoz san’atkor, mohir sozanda Turg‘un Alimatovning kuzatuvlariga ko‘ra: “Yangi milliy asar – “Tohir va Zuhra”ning namoyishiga yaqin shahar va qishloqlardan kelgan muhlislar 10-15 kun davomida kutib musiqali dramani tomosha qilishga erishganlar” [3].

O‘z davrida mashxur san’at ustalaridan, - Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqov, Mashrabjon Yunusov va Mahmudjon G‘ofurovlar Tohir rolini, Tursunxon Ja’farova, Shahodat Rahimova, E’tibor Jalilova, Farog‘at Rahmatovalar Zuhra rolini maromiga yetkazib ijro etganlar. Baralla aytish joizki, ularning bunday mahorati tufayli spektaklning umri uzaygan [4].

Asosiy tahlil va natijalar

Sahna yuzini qayta-qayta ko‘rgan davrlardan boshlab to bugungi kunga qadar “Tohir va Zuhra” respublikamizning deyarli barcha musiqali teatrlarida navbati bilan yangidan sahnalashtirilib, ozmi ko‘pmi o‘zgartirishlar bilan namoyish etilgani sir emas. Quyidagi jadvalda tegishli ma’lumotlar keltiriladi:

“Tohir va Zuhra”ning Respublika musiqali drama teatrlarida qo‘ilishi xronologiyasi [5]

T/r	Musiqali drama teatrlarining nomi	Sahnaga qo‘yilgan yil	Ijodkorlar nomi
1	Yuusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Farg‘ona viloyat musiqali drama va komediya teatri	1939	Sahnalashtiruvchi rejissyor Mamadali Xaydarov Bosh qahramonlar: Nodira Inog‘omova, Yulduz Xo‘jaeva, Qanoatxon Xotamova, Mamadali Dadajonov, Abdurahmonqori Tojiboev
2	Yo‘ldosh Ohunboboev nomidagi Andijon musiqali drama teatri	1940	Sahnalashtiruvchi rejissyorlar: Abduvahob Azimov, Abbos Bakirov Bosh qahramonlar: Fotima Xo‘jaeva, Qamara Burnasheva, Mashrab Yunusov
3	Alisher Navoiy nomidagi Namangan viloyat musiqali drama va komediya teatri	1940	Sahnalashtiruvchi rejissyor Razzoq Hamroev Bosh qahramonlar: Tursunxon Ja’farova, S.Rahmonov
4	Hamza nomidagi Qo‘qon shahar musiqali drama teatri	1940	Sahnalashtiruvchi rejissyor Salimjon Jo‘raboev Bosh qahramonlar: Murodjon Ahmedov, Valijon Hamroev, Saboxon Karimova
5	Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri	1941	Sahnalashtiruvchi rejissyor Abduvahob Azimov Bosh qahramonlar: Tursunxon Ja’farova, Shahodat Rahimova, E’tibor Jalilova, Farog‘at Rahmatova, Mashrabjon Yunusov, Mahmudjon G‘ofurov, Jamolqori G‘iyosov, Ma’murjon Uzoqov
6	Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyat musiqali drama va komediya teatri	1941	Bosh qahramonlar: Halima Zufarova, Zohid Sodiqov
7	Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatri	1941	Bosh qahramonlar: Onabibi Ochilova, H.Boltaev

8	Sadriddin Ayniy nomidagi Buxoro viloyat musiqali drama va komediya teatri	1944	Sahnalashtiruvchi rejissyor Mirobid Musaev Bosh qahramonlar: Nazokat Ne'matova Ahmad Fayziev
9	Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatri	1944	Sahnalashtiruvchi rejissyor Muzaffar Muhammedov Bosh qahramonlar: Murodjon Ahmedov, E'tibor Jalilova
10	Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri	1946	Sahnalashtiruvchi rejissyor Muzaffar Muhammedov Bosh qahramonlar: Shahodat Rahimova, E'tibor Jalilova, Mashrabjon Yunusov, Mahmudjon G'ofurov, Ma'murjon Uzoqov
11	Mannon Uyg'ur nomidagi Yangiyo'l musiqali drama teatri	1946	Sahnalashtiruvchi rejissyor Kamtar Otaboev Bosh qahramonlar: Fazliddin Shamsiddinov
12	Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri	1950	Sahnalashtiruvchi rejissyor Muzaffar Muhammedov Bosh qahramonlar: Shahodat Rahimova, E'tibor Jalilova, Mashrabjon Yunusov
13	Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri	1953	Sahnalashtiruvchi rejissyor Viktor Yakovlevich Golovichner Bosh qahramonlar: E'tibor Jalilova, Mashrabjon Yunusov
14	Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatri	1953	Sahnalashtiruvchi rejissyor Armug'on Muhamedov Bosh qahramonlar: San'at Devonov, Sultonposhsha Raximova
15	Sadriddin Ayniy nomidagi Buxoro viloyat musiqali drama va komediya teatri	1953	Sahnalashtiruvchi rejissyor R.Botirov Bosh qahramonlar: Nazokat Ne'matova, Sattor Yarashev
16	Alisher Navoiy nomidagi Namangan viloyat musiqali drama va komediya teatri	1954	Sahnalashtiruvchi rejissyorlar: Albert Xachaturov va Mirzajon Dadaboev
17	Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat	1954	Sahnalashtiruvchi rejissyor Armug'on Muhamedov

	musiqali drama va komediya teatri		Bosh qahramonlar: San’at Devonov, Sultonposhsha Raximova
18	Sadriddin Ayniy nomidagi Buxoro viloyat musiqali drama va komediya teatri	1973	Sahnalashtiruvchi rejissyor Aminjon Akobirov Bosh qahramonlar: Nazokat Ne’matova, A.Fayziev
19	Sadriddin Ayniy nomidagi Buxoro viloyat musiqali drama va komediya teatri	1977	Sahnalashtiruvchi rejissyor Ubaydulla Baqoev Bosh qahramonlar: Nazokat Ne’matova, Muxammad Rafiqov
20	Alisher Navoiy nomidagi Namangan viloyat musiqali drama va komediya teatri	1977	Bosh qahramonlar: Onaxon Tojiboeva, M.Isomiddinov
21	Mulla To‘ychi Toshmuhamedov nomidagi Qashqadaryo viloyat musiqali drama va komediya teatri	70-80 yillar	Sahnalashtiruvchi rejissyor Aliqul To‘laev Bosh qahramonlar: Oygul Xalilova, Jabbor Toshev
22	Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri	1984	Sahnalashtiruvchi rejissyor Baxtiyor Ixtiyorov Bosh qahramonlar: Mexri Bekjonova Abdushoir Salimov
23	Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri	2016 yildan buyon	Sahnalashtiruvchi rejissyor Ahad Farmonov Bosh qahramonlar: Omon Yo‘ldoshev, Zulfiya Umerova, Durdona Nosirova

Muqimiy nomidagi poytaxt musiqali drama teatri bosh dirijyori, taniqli kompozitor Olimjon Komiljonov bilan “Tohir va Zuhra” musiqali dramasining sahna taqdiri haqida suhbatlashdik. Suhbat jarayonida teatr shinavandalariga qiziq bo‘lgan qator ma’lumotlar ochiqlandi:

- Olim aka, aynan “Tohir va Zuhra” 80-yillarga qadar teatr sahnasida uzluksiz namoyish etilgan. So‘ngra, keyingi o‘ttiz yil davomida negadir repertuardan o‘rin olmadi. Buning sababi nimada?

- Saksoninchi yillarning o‘rtalarida taniqli aktyor Baxtiyor Ixtiyorov Muqimiy teatriga bosh rejissyor etib tayinlangan edi. O‘sha kezlarda Baxtiyor Ixtiyorov tomonidan aynan “Tohir va Zuhra” spektakli qayta sahnalashtirilib shinavandalar e’tiboriga havola etildi. Biroq, spektakl dramaturgiyasining keskin o‘zgarishi tomoshabinlar kutganidek taassurot qoldirmagan. Shu sababli, yangi ijro talqinidagi musiqali drama namoyishi sinovdan o‘tmadi.

- Asarning ichki dramaturgiyasida ham o‘zgarishlar yuz berganmidi?

- Ochig‘i, spektakldagi xalq va zodagonlarni bir-biriga qarshi qo‘yish va kurashishga urg‘u berildi. Avvalgi talqinlarda Tohirning fe’l-atvori voqealar jarayonida o‘zgarib borgan bo‘lsa, keyingi spektaklda qahramon dastlabki ko‘rinishdayoq xalq kurashchisi sifatida namoyon bo‘lgan. Ayniqsa, Tohir va Zuhraning xalqqa nisbatan sadoqati bir-biriga muxabbatidan ustunlik qila boshladi. Hatto oshiqlar tarannumidagi mashhur “Ey quyosh”, “Ayirmish” ariyalaridan voz kechishga sabab bo‘ldi. Tabiiyki, bunday holat tomoshabinlar ishtiyoqini bir muncha so‘ndirdi. Shu kabi o‘zgarishlar bilan mazkur musiqali drama faqat 1985 yil so‘nggiga qadar teatr sahnasida namoyish etildi, xolos.

- Yana qanday sabablar tufayli keyingi o‘ttiz yil mobaynida “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi sahnaga olib chiqilmagan deb o‘ylaysiz?

- Ustoz To‘xtasin Jalilov tomonidan bastalangan qo‘shiq va ashulalarni ijro etishni faqatgina iqtidori baland, yetuk ovoz sohiblarigina uddalay olishi sir emas. O‘sha kezlarda, mashxur xonanda-aktyorlardan Mashrabjon Yunusov va Maxmudjon G‘ofurov, Tursunxon Ja’farova va Farog‘at Rahmatovalar singari ovoz ko‘lami keng va shirali bo‘lgan san’atkorlar yetishmay qoldi. Shu tufayli o‘zbek xalqining sevimli “Tohir va Zuhra”si, afsuski, 80-yillar oxiridan o‘ttiz yil davomida Muqimiy teatri repertuaridan o‘rin olmadi [6].

Xozirgi vaqtga kelib teatr shinavandalari tomonidan tarixiy spektakllarni tomosha qilishga bo‘lgan qiziqish yana orta boshlangani seziladi. Nihoyat, 2016-yildan e’tiboran Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali drama teatrida

“Tohir va Zuhra” tomoshabinlar e’tiboriga havola etila boshladi. Tajribali rejissyor Ahad Farmonov tomonidan endigi spektakldagi yetmishdan ortiq ariya, duet, xor namunalarining soni biroz kamaytirilib, zamondosh tinglovchilarimiz uchun moslashtirildi. Shuningdek, teatrda adabiy emakdosh bo‘lib xizmat qilgan dramaturg, ayni paytda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti katta o‘qituvchisi Oltinoy Tojiboeva mazkur musiqali dramaning matniga muayyan o‘zgartirishlar kiritdi. Jumladan, spektaklning ichki dramaturgiyasi kuchaytirilib, Vazirning qora niyatli rejasi, Qorabotirning saroyda uyushtirgan fitnasi kabi yangi sahnalar kiritildi. Kompozitor O.Komiljonov tomonidan esa uvertyura, xoral va final qismi musiqasi bastalandi.

Odatdagidek, “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi ham uvertyura bilan boshlanadi. Uning og‘ir-vazmin sur’ati, minorli ma’yus jarangi bosh qahramonlarning armonli muxabbati haqida tinglovchiga hikoya qilgandek bo‘ladi. Jo‘rlik ostida sahnada paydo bo‘lgan raqqosalar xarakati orqali farishtalar siymosi gavdalantiriladi. Raqs xarakati uchun uvertyura fakturasining akkordli davomiyligi mos keladi. Avvaliga violonchellarda yangragan kuyning sokin ohanglari go‘yoki tomoshabinga pichirlab “diqqat” deyayotgandek taassurot qoldiradi. So‘ngra, royal cholg‘usida tanish ohanglar tarala boshlaydi. Uvertyuraning bosh kuy mavzusi uchun To‘xtasin Jalilov bastalagan mashxur “Otmagay tong” dueti ohanglari zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Keyingi musiqiy sahnalar orasida xalqchil mavzudagi - “Jarchilar”, “Qutlug‘ bo‘lsin” qo‘shiqlari tinglovchilarga ko‘tarinki kayfiyat baxsh etadi. Raqsbop “Duchava” kuyi ohanglari ham shod-xurramlik kayfiyatini aks ettiradi. O‘zbek halqi oilaviy marosimlaridan biri – go‘dakni beshikka solish udumida yangrovchi nog‘ora sadolari urma-zarbli cholg‘ular guruhi ijrosida yanada jonlanadi.

Musiqali dramadagi yorqin sahnalardan biri – Zuhraning “Qalamlar tavsifingda madhlar doim taloshingda...” deb boshlanuvchi ariyasidir. Mazkur ariya Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan mashxur “Qalandar chapandozi” ashulasi

negizida bastalangan. Bog‘ sahnasida Tohirni orziqib kutayotgan Zuhra hayajoni uning jozibador ariyasi orqali ifoda etiladi. Doira zarblari hamda kamonli-torli cholg‘ularda taralayotgan nafis kuy qahramonning his-tuyg‘ularini ochib berishda hamnafaslik qiladi.

Yana kanizlar ijrosida “Xush kelibsiz” nomli ommabop qo‘shig‘i hamda Tohirning “Har qachon” nomli ariyasi sho‘x-raqsona xarakterli musiqiy sahnalardir. Shuningdek, To‘xtasin Jalilov bastalagan va o‘zbek halqining sevimli qo‘shig‘iga aylangan Tohir ijrosidagi “To‘ylar muborak” finalda yangraydi. Uning barcha musiqiy sahnalar ichida eng jozibalisi ekanligi tomoshabinlarning qarsaklari bilan o‘z tasdig‘ini topadi.

Bugungi kunda mazkur asar biroz o‘zgacha talqinda namoyish etilayotir. Zamondosh san’at ustalari ijrosidagi jozibali ariya, duet hamda xor namunalari jarangi tomoshabin qalbini sof tuyg‘ularga to‘ldirganini his qilish mumkin. Albatta, bunda nafaqat aktyor-xonandalarni, balki, orkestrning ulushi ahamiyatli. Dirijor Akmal To‘raev rahbarligidagi “Kichik simfonik” orkestri nafaqat kamonli-torli, klavishli hamda damli va zarbli cholg‘u guruhlardan tashkil topgan, balki, uning tarkibiga qashqar rubobi, nay, doira kabi milliy cholg‘ular ham kiritilgan. Yevropa va milliy sozlarning hamohang sadolanishi uyg‘un tushgan holda tinglovchiga ko‘tarinki kayfiyat baxsh etadi.

Shuningdek, sahnadagi voqealarning ishonarli tarzda namoyon bo‘lishida tajribali aktyorlar hamda yosh iste’dod sohiblari jonbozlik ko‘rsatmoqdalar. Bular:

- Omon Yuldashev (Tohir rolida);
- Durdona Nosirova (Zuhra rolida);
- Iqbol Oshiqov (Boboxon rolida);
- Qobil Umirov (Bohir rolida);
- Umid Shodmonov (Qorabotir rolida);
- Mehmonali Salimov (Shoir Nozim rolida);
- Aleksandr Bekjonov (Vaziri a’zam rolida);

- Turg‘un Beknazarov (Xorazm xoni rolida);
- Feruza Mustafoeva (Mohim rolida);
- Gulnoza Saidova (Yulduz rolida).

Xulosa va tavsiyalar

Bugungi “Tohir va Zuhra” musiqali spektaklining ko‘plab yutuqli tomonlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari ham yo‘q emas. Masalan, ikkinchi ko‘rinishda Tohir bilan Qorabotirning qilich o‘ynatish mashg‘uloti litavra cholg‘usining gumburlagan sadosi ostida o‘tadi. Bu vaziyatda litavra zarblarining noo‘rin ishlatilganini hamda uning sahnadagi harakatlar bilan aytarli qovushmaganini aytish joiz. Yana, bosh qahramonlar qatori tomoshabinga yaxshi tanish bo‘lgan ishtirokchilarning yo‘qligi seziladi. Aniqrog‘i, avvalgi sahna talqinlarida muayyan o‘rin egallagan xalq yo‘lboshchisi bo‘lmish Sardor, Zuhraning eng yaqin dugonasi, kanizi bo‘lmish Qamar singari ishtirokchilar spektakldan umuman olib tashlangan. Aynan Qamar siymosini o‘z davrida noyob ovoz sohibasi Saodat Qobulova yuksak mahorat bilan ochib berganini keksa musiqa ixlosmandlari eslaydi. Ehtimol, aytib o‘tilgan ushbu kamchiliklar rejissyorlik yechimi bilan tuzatilar deya umid bog‘lab qolamiz.

Muxtasar qilib aytganda, durdona sahna asari bo‘lmish “Tohir va Zuhra” yana ko‘p yillar davomida nafaqat tomoshabinlarga estetik zavq bag‘ishlovchi spektakl bo‘lib qoladi, balki, undagi jozibali, yorqin kuy, qo‘shiq va ashulalar kelajakda zamondosh san’atkorlarning ijroviy bisotini boyitib borishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matyokubov O. Andijon samosi // Jannatmakon jurnali. – 2011. – fevral.
2. Karimov N. “Tohir va Zuhra”ning ijodkori // Yangi O‘zbekiston. – 2021. – 30 yanvar. – № 21.
3. Tursunov T. O‘zbek teatr tarixi. – Toshkent, 2008.
4. Otajon U. San’at mening quyoshimdir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
5. Yunusov R. “Tohir va Zuhra” kinofilm musiqasi haqida // Boqiy sevgi afsonasi / sost. X. I. Akbarov. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2015.
6. Suhbat: kompozitor Olimjon Komiljonov bilan “Tohir va Zuhra” musiqali dramasining sahna taqdiri haqida.

References

1. Matyokubov, O. *Andijon samosi* [The Sky of Andijan]. *Jannatmakon* journal, February 2011. (in Uzbek)
2. Karimov, N. “Tohir va Zuhra”ning ijodkori [The Creator of *Tohir and Zuhra*]. *Yangi O‘zbekiston*, no. 21, January 30, 2021. (in Uzbek)
3. Tursunov, T. *O‘zbek teatr tarixi* [History of Uzbek Theatre]. Tashkent, 2008. (in Uzbek)
4. Otajon, Urfon. *San’at mening quyoshimdir* [Art Is My Sun]. Tashkent: Yangi asr avlodi, 2006. (in Uzbek)
5. Yunusov, R. “Tohir va Zuhra” kinofilm musiqasi haqida [On the Music of the Film *Tohir and Zuhra*]. In *Boqiy sevgi afsonasi* [The Legend of Eternal Love], compiled by Kh. I. Akbarov. Tashkent: G‘afur G‘ulom Publishing House, 2015. (in Uzbek)
6. Interview with composer Olimjon Komiljonov on the stage fate of the musical drama *Tohir and Zuhra*. (in Uzbek)